ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH

HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O‘RNI VA ULARNING TA’SIRINI BAHOLASH USLUBIYOTI

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch — 2026

UDK: 332.122-047.43(575.146)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic sciences

Ibragimov Aziz Turayevich
Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni va ularning ta’sirini baholash uslubiyoti.....3

Ибрагимов Азиз Тураевич
Роль свободных экономических зон в развитии экономики регионов и методика оценки их влияния.....31

Ibragimov Aziz Turayevich
The role of free economic zones in the development of regional economies and the methodology for assessing their impact…….....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……...……....65

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

IBRAGIMOV AZIZ TURAYEVICH

HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O‘RNI VA ULARNING TA’SIRINI BAHOLASH USLUBIYOTI

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch — 2026

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/6595 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Osiyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xurramov Ortikjon Kayumovich** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muxitdinov Xudayar Suyunovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Qo‘ziboyev Umarbek Ulug‘bekovich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ kuni soat _____:_____ dagi majlisda bo‘lib o‘tadi. Manzil: 220100, Urganch sh., X.Olimjon ko‘chasi-14. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., X.Olimjon ko‘chasi-14. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____kuni tarqatildi.

(2026-yil “____” _____dagi_____raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T. J. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

B. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, “bugungi kunda 147 ta iqtisodiyotda qariyb 5400 ta zona mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich besh yil avvalgi taxminan 4000 taga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. Shuningdek, yana 500 dan ortiq yangi maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish rejalashtirilgan. Maxsus iqtisodiy zonalarning bunday jadal rivojlanishi yangi sanoat siyosatining bir qismi hamda xalqaro harakatchan investitsiyalar uchun raqobatning kuchayishiga javob sifatida namoyon bo‘lmoqda”[1]. Mazkur statistik ma’lumotlar jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarning strategik ahamiyati tobora ortib borayotganligini, xususan, dunyo miqyosida erkin iqtisodiy zonalar sonining so‘nggi besh yil ichida 1400 tagacha o‘sishi hamda yana 500 dan ortiq yangi zonalarni tashkil etish rejalashtirilayotganligi ushbu mexanizmning investitsiyalarni jalb qilish, eksportni kengaytirish va sanoatni modernizatsiya qilishda samarali iqtisodiy instrument sifatida tan olinayotganligini anglatadi.

Jahonda so‘nggi yillarda ham rivojlanayotgan, ham rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan ko‘plab yangi sanoat siyosatlarining deyarli barchasi investitsiyalarni jalb qilishga muayyan darajada yo‘naltirilgan. Shu bilan bir vaqtda, transchegaraviy ishlab chiqarish investitsiyalarining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu sababli xalqaro harakatchan investitsiyalarni sanoat quvvatlariga jalb qilish bozori tobora qiyin va raqobatbardosh tus olmoqda. Investitsiyalarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib qolmoqda, ammo taklif qisqarib, bozor muhiti noqulay ahvolda qolmoqda. Aynan shu sharoitda maxsus iqtisodiy zonalardan investitsiyalarni jalb qilish va sanoatni rivojlantirish siyosatining muhim vositasi sifatida foydalanish jadal o‘smoqda.

Boshqa mamlakatlar qatori respublikamizda ham erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning imkoniyatlaridan hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali foydalanish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, “jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart - sharoitlar yaratish”[2] hamda “tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan mineral-xom ashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlarni yaratish, shuningdek, viloyatning ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, shu asosda yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish”[3] kabi masalalar aynan respublikamizda tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalar zimmasiga yuklatilgan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O‘RQ-604-son “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi

[1] World Investment Report. https://unctad.org/system/ files/official-document/wir2019_en.pdf.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial — iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059-sonli Farmoni.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-sonli Farmoni.

Prezidentining 2025 yil 3 martdagi PF-41-sonli “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 13 iyundagi PF-153-son “Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar, sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 21 dekabrdagi PF-5600-son “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 6 iyundagi PQ-271-son “Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash chora-tadbirilari to‘g‘risda”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy o‘sish, eksportni rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, hududiy rivojlanish va global iqtisodiyotga integratsiyalashuvdagi o‘rnini baholash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish hamda mamlakatlarning global va mintaqaviy qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish kabi masalalar A.Basile, D.Germidis, T.Yitao, L.Zhiguo, A.Aggarwal, W.Angko, F.Bost, X.Chen, T.Cheng, T.Farole, L.Moberg va boshqa shu kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan[4].

MDH mamlakatlari olimlaridan Ye.Aleksandrova, K.Babagulov, A.Yesentugelov, V.Bondarenko, A.Gnidenko, A.V.Gribov, V.N.Kulakov, P.Mishtal, A.Dedul, R.I.Zimenkov, M.Kononov, O.V.Korneyko, I.Lyu, A.Kuznesov, T.L.Onikov, P.V.Pavlov, Ye.Yu.Sergeevlar erkin iqtisodiy zonalarning nazariy-uslubiy asoslari, tashkil etish mexanizmi, milliy iqtisodiyot va hududiy rivojlanishga ta’siri, boshqaruv mexanizmlari, imtiyozlar tizimi va samaradorligi, erkin iqtisodiy zonalar yaratishning jahon tajribalari hamda ularning huquqiy-iqtisodiy boshqaruvi kabi masalalarni keng tadqiq etganlar. Yuqorida qayd etilgan xorijiy tadqiqotlarda EIZlar ta’siri asosan Xitoy, Hindiston va AQSH ma’lumotlarida, MDH va mahalliy olimlarning ishlarida esa EIZlarning nazariy-uslubiy asoslari, tashkil etish mexanizmi va xorijiy tajribani qo‘llash masalalari o‘rganilgan.

[4] Basile A., Germidis D. Investing in Export precessing zones OECD. 1984 p. 20.; Yitao Tao, Zhiguo Lu. Special Economic Zones and China’s Development Path. — Springer, 2018.; Aggarwal, A. (2010). Economic impacts of SEZs: Theoretical approaches and analysis of newly notified SEZs in India. Delhi: Department of Business Economics, University of Delhi.; Angko, W. (2004). “Analysis of the Performance of Export Processing Zones in Ghana’’. Journal of Business Administration and Education, 5(1): 1-43.; Bost, F. (2016). Free Zones: a State of the Art. The World of Free Zones. Towards a New Global Trade Order. Dubai: World Free Zones Organization.; Chen, X. (2019). “Change and Continuity in Special Economic Zones: A Reassessment and Lessons from the Chinese Experience”. Transnational Corporations, 26(2), forthcoming.; Cheng, T. (2019b). “Special Economic Zones: A Catalyst for International Trade and Investment in Unsettling Times?” Journal of World Investment & Trade, 20(1): 32-67.; Farole, T. (2011). ‘’Special Economic Zones: What Have We Learned?’’. World Bank Economic Premise, No. 1-5.; Moberg L. (2015). ‘’The political economy of special economic zones.’’ Journal of Institutional Economics, 11(01): 167-190.

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish, mazkur zonalarda yuritiladigan iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilashda ularning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish kabi masalalar mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ham ilmiy qiziqishlari predmeti bo‘lib kelmoqda. Jumladan, H.R.Hamroyev, M.K.Rashidov, R.N.Jiyamuratov, L.B.Vafoqulova, J.Jamolov, Sh.Fayziev, J.I.Karimqulov, X.A.Kuldoshev, Sh.A.Qoraboev, G.A.Inamova, S.I.Alabaev, Sh.S.Maxsudov, Sh.Sh.Achilova, J.M.Nurboev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida erkin iqtisodiy zonalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, ularni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari hamda xorijiy tajribani milliy amaliyotga joriy etish masalalari, zonal siyosatning metodologiyasi, xorijiy mamlakatlar tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yo‘nalishlari, erkin iqtisodiy hududlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy mexanizmlarni tadqiq qilish masalalari, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining institutsional va iqtisodiy xususiyatlari, ularni tashkil etish tendensiyalari va hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini baholash kabi masalalar tadqiq etilgan[5].

Biroq O‘zbekiston sharoitida EIZlar faoliyati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni vaqtli qatorlarning integratsiya tartibini hisobga olgan holda ekonometrik baholash, EIZlarning hududiy rivojlanishga ta’sir darajasini ekspert baholarini noaniq to‘plamlar nazariyasi asosida integrallash orqali o‘lchash hamda sof ta’sirni ajratish uslubiyotini hududiy darajaga moslashtirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Shuningdek, respublika va Buxoro viloyatidagi EIZ, kichik sanoat va yoshlar sanoat zonalari faoliyatining hozirgi tendensiyalari kompleks tahlil qilinmagan. Bu esa tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Osiyo xalqaro universitetining “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

---

[5] Ҳамроев Ҳ.Р. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажриба ва қўллаш йўналишлари. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. 2008. Б. 339-340.; Рашидов М.К. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2018, 9(117). — 25 б.; Жиямуратов Р.Н. Эркин иқтисодий ҳудуднинг экспорт салоҳиятини оширишнинг назарий масалалари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 6/2023, noyabr-dekabr. 103-б.; Вафоқулова Л.Б. Эркин иқтисодий зоналар Хитой Халқ Республикаси тажрибасида. Scientific progress. Volume 2 | Issue 5 | 2021 ISSN: 2181-1601. Б. 192-193.; Жамолов Ж., Файзиев Ш. Ўзбекистон иқтисодиётга хорижий инвестицияларни жалб этишда эркин иқтисодий ҳудудларни ташкил этиш имкониятлари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2026-yil, mart. III son — mart, 2026. — 323 б.; Каримқулов Ж.И. Ўзбекистоннинг эркин иқтисодий зоналарни ташкил этиш ва ривожлантириш тенденциялари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь,2019 йил. — 2 б.; Кулдошев Х.А. Влияние свободных экономических зон на региональный экономический рост: пример навоийской свободной индустриально-экономической зоны. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. T. 2020. Б. 34-35.; Қорабоев Ш.А., Инамова Г.А., Алабаев С.И. Эркин иктисодий зоналар фаолиятини ривожлантириш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2018 йил. — 3 б.; Махсудов Ш.С. Эркин иқтисодий зоналарнинг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги ўрни. Scientific progress. Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1601. 160-б.; Achilova Sh.Sh. Erkin iqtisodiy zonalarda innovatsiyalarni boshqarishda xorij davlatlar tajribasi va O‘zbekiston Respublikasida qo‘llash imkoniyatlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2024. — 11 b.; Nurboyev J.M. Maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Тошкент. 2024. — 11 б.

Tadqiqotning maqsadi. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni va ularning ta’sirini baholash uslubiyoti bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

erkin iqtisodiy zonalarning mohiyati va tasniflash mezonlarini umumlashtirib, “erkin iqtisodiy zona” va “erkin iqtisodiy hudud” tushunchalarini farqlash mezonlarini asoslash;

xorijiy mamlakatlar tajribasidan O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan EIZlarni tashkil etish va boshqarish yondashuvlarini aniqlash;

EIZlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir kanallari va ularni baholash ko‘rsatkichlari tizimini asoslash;

Respublika va Buxoro viloyatidagi EIZ, kichik sanoat va yoshlar sanoat zonalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasini baholab, rivojlanish bosqichlari va hududiy nomutanosibliklarni aniqlash;

vaqtli qatorlarning integratsiya tartibini hisobga olgan holda EIZlarda investitsiya, ishlab chiqarish, eksport va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ekonometrik baholash;

ekspert so‘rovi natijalarining ishonchliligi va kelishuvchanligini tekshirish asosida EIZ ta’sir kanallarini ustuvorlashtirish;

EIZlarning hududiy rivojlanishga sof ta’siri va darajasini noaniq to‘plamlar nazariyasi asosida baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

muqobil trend modellarini aniqlik mezonlari bo‘yicha tanlash asosida EIZ asosiy ko‘rsatkichlarini prognozlash;

Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarishni prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublika hududlarida, xususan, Buxoro viloyatida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyati hamda ularning hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sir etish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti erkin iqtisodiy zonalarning hududlar iqtisodiyotiga ta’sirini baholash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ta’sir yo‘nalishlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi hamda ularni tahlil qilish va baholash usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, tasniflash, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, prognozlash hamda statistik usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga iqtisodiy o‘sish, investitsion muhit, aholi bandligi, infratuzilma, eksport, sanoat ishlab chiqarish, kichik biznes hamda biznes madaniyatini oshirish kabi jarayon va ko‘rsatkichlarga bo‘lgan ta’sirlarini baholashda ekspert so‘rov usulidan foydalanishning mualliflik uslubiyoti taklif etilgan;

erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholashda vaqtli qatorlarning integratsiya tartibi bo‘yicha tuzilgan ishlab chiqarish va eksport hamda mehnat unumdorligining kointegratsion funksiyasidan foydalanish orqali qoldiqlar diagnostikasini amalga oshirish tizimi taklif etilgan;

erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir darajasini

ekspert ballarini shkala chegaralariga nisbatan me’yorlashtirish, integral indeksga agregatlash va trapetsial a’zolik funksiyalari yordamida past, o‘rta, yuqori darajalarda baholashning mualliflik uslubiyoti taklif etilgan;

erkin iqtisodiy zonalarning ishlab chiqarish hajmi, eksport, investitsiya va bandlik kabi asosiy ko‘rsatkichlarini muqobil trend modellarining aniqlik mezonlari asosida prognozlash hamda parabolik o‘rtacha o‘sish sur’ati yondashuvi asosida kichik sanoat zonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2030-yildagi maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

2015–2025-yillarda respublika EIZlarida ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd dollardan 17,0 mlrd dollarga, eksport 0,35 mlrd dollardan 6,5 mlrd dollarga oshgani, eksportning ishlab chiqarishdagi ulushi 35 foizdan 38 foizga ko‘tarilgani va bir xodimga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish 100 ming dollardan 200 ming dollarga ikki barobar oshgani aniqlangan;

EIZlarda investitsiyalar hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,58 mln dollarga, ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi esa eksport hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,39 mln dollarga oshirishi, bandlik o‘zgarishining ishlab chiqarishga ta’siri esa statistik jihatdan tasdiqlanmasligi aniqlangan;

Buxoro viloyatida kichik sanoat zonalari eksportining qariyb 86 foizi Kogon tumaniga to‘g‘ri kelishi va bu konsentratsiya investitsiya hajmi bilan emas, balki 1 so‘m investitsiyaga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarishning yuqoriligi bilan izohlanishi, 2025-yilda Vobkent, Qorovulbozor, Olot va Shofirkon tumanlaridagi kichik sanoat zonalarida yangi ish o‘rinlari yaratilmagani aniqlanib, sanoat zonalarini qo‘llab-quvvatlashni hududiy tabaqalashtirish zarurati asoslangan;

ekspert baholariga ko‘ra EIZlarning eng kuchli ta’sir kanallari sanoat ishlab chiqarishi (o‘rtacha 5,0 ball), iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar va eksport (4,86 ball), nisbatan zaif kanallari esa bandlik, infratuzilma, kichik biznes va biznes ko‘nikmalari (4,14 ball) ekanligi aniqlangan;

EIZlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga integral ta’sir indeksi 0,78 ni tashkil etib, “yuqori” toifaga mansubligi (a’zolik darajasi 0,89), eng zaif yo‘nalish esa aholi daromadlariga ta’sir (0,64) ekanligi aniqlangan;

Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida 2027–2030-yillardagi jami ishlab chiqarishni 2026-yil darajasining 10 barobariga yetkazish uchun ishlab chiqarishni har yili o‘rtacha 40,3 foizga oshirish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan dastlabki ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Buxoro viloyati hokimligi ma’lumotlaridan olinganligi, vaqtli qatorlarning statsionarligi yagona spetsifikatsiyadagi (ozod had va trend, lag=0) kengaytirilgan Dikki-Fuller testi bilan, regressiya parametrlarining statistik ahamiyatliligi Styudent t- va Fisher F-mezonlari bilan, qoldiqlarning avtokorrelyatsiyasi, geteroskedastikligi va normalligi mos ravishda Darbin-Uotson, Breush-Pagan va Jark-Bera testlari bilan, mehnat unumdorligi funksiyasining uzoq muddatli xarakteri Engl-Grenjer kointegratsiya testi

bilan tekshirilganligi, ekspertlar baholarining o‘zaro izchilligi Kronbax alfa koeffitsiyenti (α=0,877), ekspertlar fikrining kelishuvchanligi konkordatsiya koeffitsiyenti (W=0,575) va uning ahamiyatliligi Pirsonning xi-kvadrat mezoni (χ^2=28,19 > 14,07) bilan tasdiqlanganligi, prognoz modellarining aniqligi esa MAE, MAPE, RMSE, R^2, Darbin-Uotson, Jark-Bera va Teyl mezonlari asosida tekshirilganligi, prognozlar uchun 95 foizli ishonch oraliqlari hisoblanganligi, integral indeksning barqarorligi esa sezgirlik tahlili bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada yoritilgan usul, uslub va yondashuvlardan hududlarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari va darajasini tahlil qilishda, ularning o‘zgarishlarini prognozlashda hamda olingan natijalardan hududlarni uzoq muddatli rivojlantirish istiqbollarini belgilash va bu boradagi zonal siyosatni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan tahliliy ma’lumot va natijalardan Buxoro viloyatida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar hamda ularning direksiyalari amaliy faoliyatida foydalanilganligi, amaliyotga taqdim etilgan asosiy hisob-kitob natijalari viloyatning bu bordagi turli xil rivojlanish variantlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni va ularning ta’sirini baholash uslubiyoti bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy o‘sish, investitsion muhit, aholi bandligi, infratuzilma, eksport, sanoat ishlab chiqarish, kichik biznes hamda biznes madaniyatini oshirish kabi jarayon va ko‘rsatkichlarga bo‘lgan ta’sirlarini baholashda ekspert so‘rov usulidan foydalanishning mualliflik uslubiyotidan Buxoro viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Buxoro viloyati hokimligining 2026-yil 17-iyundagi 5/1787-01-05-son ma’lumotnomasi). Natijada, Buxoro viloyatida tashkil etilgan “Buxoro Agropolis MEIZ” direksiyasi faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ortishiga erishilgan;

erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholashda vaqtli qatorlarning integratsiya tartibi bo‘yicha tuzilgan ishlab chiqarish va eksport hamda mehnat unumdorligining kointegratsion funksiyasidan foydalanish orqali qoldiqlar diagnostikasini amalga oshirish tizimi taklifi Buxoro viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Buxoro viloyati hokimligining 2026-yil 17-iyundagi 5/1787-01-05-son ma’lumotnomasi). Natijada, EIZlarga jalb qilingan investitsiyalar hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,58 mln dollarga, ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ko‘payishi eksport hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,39 mln dollarga oshirishi bo‘yicha hisob-kitoblarning aniqligi ta’minlangan;

erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sir darajasini ekspert ballarini shkala chegaralariga nisbatan me’yorlashtirish, integral indeksga agregatlash va trapetsial a’zolik funksiyalari yordamida past, o‘rta, yuqori darajalarda

baholashning mualliflik uslubiyoti Buxoro viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Buxoro viloyati hokimligining 2026-yil 17-iyundagi 5/1787-01-05-son ma’lumotnomasi). Natijada, Buxoro viloyati hududiy iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoqlarni istiqbolda rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon bergan;

erkin iqtisodiy zonalarning ishlab chiqarish hajmi, eksport, investitsiya va bandlik ko‘rsatkichlarini prognozlash hamda Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2030-yildagi maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari Buxoro viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Buxoro viloyati hokimligining 2026-yil 17-iyundagi 5/1787-01-05-son ma’lumotnomasi). Natijada, EIZ ko‘rsatkichlari bo‘yicha asosiy va ehtiyotkor prognoz ssenariylarini shakllantirish hamda Buxoro viloyatini istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish aniqligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shulardan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 141 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Erkin iqtisodiy zonalar va ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda erkin iqtisodiy zonalarning mohiyati, tasniflash mezonlari va shakllari, erkin iqtisodiy zonalar yaratishning jahon tajribasi va unda hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari hamda erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari va baholash ko‘rsatkichlari kabi masalalar bayon etilgan.

“Erkin iqtisodiy zonalar - bu xorijiy davlatlar, korxona va firmalar uchun maxsus tashkil etilgan hududlar bo‘lib, bu erda ularning korxonalari va ishchi xodimlari hukumat tomonidan berilgan imtiyozlar tufayli o‘z navbatida mavjud qonun-

qoidalarga bo‘ysungan holda daromad olishi mumkin bo‘lgan zonalardir”[6].

“Erkin iqtisodiy zonalar - davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo‘jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar”[7].

Ta’kidlash o‘rinliki, amaliyotda va ko‘plab ilmiy manbalarda “erkin iqtisodiy zona” tushunchasini anglatuvchi turli xil terminlar qo‘llaniladi. Bunday terminlar qatoriga “erkin iqtisodiy hudud”, “erkin eksport hudud”, “erkin bojxona hududi”, “bojsiz hudud”, “erkin savdo hududi”, “qo‘shma tadbirkorlik hududi”, “maxsus iqtisodiy zona”, “maxsus iqtisodiy hudud”, “texnologik hudud”, “erkin tadbirkorlik hududi” va boshqa shu kabi terminlarni kiritish mumkin. Biroq amaliyotda “erkin iqtisodiy zona” tushunchasiga nisbatan aksariyat hollarda “erkin iqtisodiy hudud” tushunchasi odatda ko‘proq qo‘llaniladi.

Muallif fikricha, bu ikkita termin mazmunan o‘xshash bo‘lsada, biroq mohiyatan bir-biridan qisman farq qiladi. Erkin iqtisodiy zona - bu aniq belgilangan hudud bo‘lib, unda maxsus soliq imtiyozlari, bojxona yengiliklari, valyuta va investitsiya rejimlari joriy qilinadi, ya’ni erkin iqtisodiy zona - bu qat’iy chegaralangan va huquqiy jihatdan alohida tartibga ega bo‘lgan hududdir. Erkin iqtisodiy hudud tushunchasi esa, kengroq ma’noga ega, bir nechta zonalarni qamrab olishi mumkin, ba’zan butun bir mintaqa yoki viloyat miqyosida qo‘llaniladi, ya’ni, bu - umumiy (katta) tushuncha, uning tarkibida bir nechta erkin iqtisodiy zonalar bo‘lishi mumkin.

Muallif, yuqoridagi terminlarni umumlashtirgan holda “erkin iqtisodiy zona” va “erkin iqtisodiy hudud” tushunchalarini bir-biridan o‘zaro farqli jihatlarini quyidagicha tavsiflaydi (1-jadval).

1-jadval

“Erkin iqtisodiy zona” va “erkin iqtisodiy hudud” tushunchalarining o‘zaro farqli jihatlari[8]

Farqlash mezonlari	Erkin iqtisodiy zona	Erkin iqtisodiy hudud
Qamrov darajasi	Aniq, kichik hudud	Keng, hududiy
Huquqiy maqomi	Aniq belgilangan rjim	Umumiy tushuncha
Tuzilma	Bitta zona	Bir nechta zonalar bo‘lishi mumkin
Qo‘llanilishi	Amaliy instrument	Nazariy va keng tushuncha

Erkin iqtisodiy zonalar institutining rivojlanish bosqichlari hududlar iqtisodiyotining taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, erkin iqtisodiy zonalar evolyutsiyasi har bir davrda hududiy iqtisodiy ehtiyojlar, bozor munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga mos ravishda shakllangan (1-rasmga qarang).

[6] Vafoqulova L.B. Erkin iqtisodiy zonalar Xitoy Xalq Respublikasi tajribasida. Scientific progress. Volume 2 | Issue 5 | 2021 ISSN: 2181-1601. B. 192-193.

[7] Maxsudov Sh.S. Erkin iqtisodiy zonalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni. Scientific progress. Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1601. 160-b.

[8] Muallif ishlanmasi.



1-rasm. EIZ institutining shakllanish bosqichlari[9]

[9] Muallif ishlanmasi

Hozirgi sharoitda hududlar iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy zonalarni faqat soliq imtiyozlari beruvchi hudud sifatida emas, balki investitsiya, texnologiya, eksport va innovatsiyalarni jalb qiluvchi kompleks rivojlanish mexanizmi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Odatda erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirlarini baholash haqida gap ketganda, mazkur tushuncha bir qarashda “erkin iqtisodiy zonalarning samaradorligi” tushunchasiga tenglashtiriladi. Mazkur tushunchadan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasini aniqlash maqsadida quyidagi baholash ko‘rsatkichlari tizimi taklif etiladi (2-jadval).

2-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirlarini baholash ko‘rsatkichlari tizimi[10]

Ta’sir ko‘rsatkichlari	Hisoblash metodikasi
EIZda yaratilgan yalpi mahsulotning hudud YAHMdagi salmog‘i, %	EIZYAMs = EIZYAM / YAHM × 100 Bu yerda: EIZYAM - EIZ ishtirokchilari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot qiymati; YAHM - yalpi hududiy mahsulot
EIZ sanoat mahsulotining hudud jami sanoat mahsulotidagi salmog‘i, %	EIZSs = EIZS / HSM × 100 Bu yerda: EIZS - EIZda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti; HSM - hudud jami sanoat mahsuloti
EIZ eksportining hudud jami eksportidagi salmog‘i, %	EIZEs = EIZE / HE × 100 Bu yerda: EIZE - EIZ subyektlari eksporti hajmi; HE - hudud jami eksport hajmi
EIZga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hudud jami investitsiyalaridagi salmog‘i, %	EIZXIc = EIZXI / HJI × 100 Bu yerda: EIZXI - EIZga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar; HJI - hudud jami investitsiyalari
EIZ korxonalari sonining hududdagi jami faol korxonalardagi salmog‘i, %	EIZKs = EIZK / JK × 100 Bu yerda: EIZK - EIZda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni; JK - hududdagi jami faol korxonalar soni
EIZda yaratilgan yangi ish o‘rinlarining hududdagi jami yangi ish o‘rinlaridagi salmog‘i, %	EIZIO‘s = EIZIO‘ / HYAIO‘ × 100 Bu yerda: EIZIO‘ - EIZda yaratilgan yangi ish o‘rinlari; HYAIO‘ - hudud bo‘yicha yaratilgan jami yangi ish o‘rinlari
EIZda ishlab chiqarish o‘sish sur’ati, %	IO‘S = $EIZS_1$ / $EIZS_0$ × 100 Bu yerda: $EIZS_1$ - joriy yildagi mahsulot hajmi; $EIZS_0$ - bazis yildagi mahsulot hajmi
EIZ maydonidan foydalanish koeffitsiyenti, %	MFK = FM / JM × 100 Bu yerda: FM - amalda foydalanilayotgan maydon; JM - EIZning jami maydoni
EIZ byudjet samaradorligi koeffitsiyenti	BSK = BT / IB Bu yerda: BT - EIZ subyektlari faoliyatidan byudjetga tushgan tushumlar; IB - davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va infratuzilma xarajatlari

[10] Muallif ishlanmasi.

Mazkur koʻrsatkichlar tizimi erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini bir tomonlama emas, balki kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali EIZning hudud yalpi mahsuloti, sanoat, eksport, investitsiya, bandlik, innovatsiya va byudjet tushumlariga qoʻshayotgan hissasini aniq ifodalash mumkin boʻladi. Natijada EIZlar faoliyatining real samaradorligi, hududiy iqtisodiyotga integratsiya darajasi va istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash uchun mustahkam uslubiy asos yaratiladi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Oʻzbekistonda erkin iqtisodiy zonalar yaratish amaliyoti, mexanizmlari, yoʻnalishlari va faoliyati samaradorligi tahlili”** deb nomlanib, unda respublikada erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, yoʻnalishlari va asosiy koʻrsatkichlari tahlili, respublika hududlarida faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar samaradorligining ekonometrik tahlili hamda Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyati va asosiy koʻrsatkichlari tahlili bayon etilgan.

Oʻzbekistonda ilk tashkil etilgan erkin iqtisodiy zona bu - “Navoiy” erkin industrial - iqtisodiy zona hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy zonaning maqsadi - “jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni jalb etish boʻyicha qulay shart - sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport - tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishdan iborat”[11].

Mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli strategik rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqib, Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi tajribasi asosida hukumat tomonidan yangi erkin iqtisodiy zonalarni barpo etish ishlari izchil ravishda davom ettirildi. Quyida respublikada erkin iqtisodiy zonalarni yaratish dinamikasi oʻz aksini topgan (2-rasm).



2-rasm. Oʻzbekistonda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish dinamikasi[12]

[11] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial - iqtisodiy zona tashkil etish toʻgʻrisida”gi PF-4059-sonli Farmoni.

[12] Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Dastlabki tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2008 - 2025-yillar davomida erkin iqtisodiy zonalar sonining bosqichma-bosqich o‘sish tendensiyasi 2008-yilda mamlakatda atigi 1 ta erkin iqtisodiy zona mavjudligini ko‘rsatsa, 2025-yilga kelib ularning soni 27 taga yetganligini tasdiqlaydi. Bu esa tahlil qilinayotgan davr mobaynida EIZlar soni 27 barobarga oshganini ko‘rsatadi.

Qaralayotgan tendensiya respublikada EIZlarni tashkil etish jarayonini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi:

Birinchi bosqich (2008 - 2016-yillar) nisbatan sekin o‘sish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda EIZlar soni 1 tadan 3 tagacha ko‘paygan. Ya’ni, mazkur bosqichda erkin iqtisodiy zonalar milliy iqtisodiyotda hali tajriba-sinov mexanizmi sifatida qaralgan, ularning institutsional-huquqiy asoslari shakllantirilgan. Shu bois, o‘sish sur’ati past bo‘lib, asosiy e’tibor ushbu instrumentning amaliy samaradorligini sinashga qaratilgan.

Ikkinchi bosqich (2018 - 2021 yillar) keskin o‘sish bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, 2016-yildagi 3 ta EIZ soni 2018-yilga kelib 21 taga, 2021 yilda esa 23 taga yetgan. Bu juda yuqori sur’atli o‘sish bo‘lib, davlatning hududiy sanoatlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiy faollikni hududlar kesimida rag‘batlantirish siyosati kuchayganidan dalolat beradi. Aynan shu bosqichda erkin iqtisodiy zonalar davlat iqtisodiy siyosatining muhim instrumentiga aylangan.

Uchinchi bosqich (2022 - 2025-yillar) barqaror kengayish bosqichi bo‘lib, ushbu davrda EIZlar soni 23 tadan 27 tagacha oshgan. Bu yerda o‘sish sur’ati avvalgi bosqichga nisbatan sekinlashgan bo‘lsa-da, jarayonning izchil davom etgani kuzatiladi. 2019 va 2021-yillarda EIZlar soni 23 ta darajasida saqlanib qolgan, 2022-yilda 24 ta, 2023-yilda 25 ta, 2024-yilda 26 ta, 2025-yilda esa 27 taga yetgan. Bunday holat yangi zonalarni shunchaki miqdor jihatdan ko‘paytirish emas, balki mavjud zonalar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning infratuzilmasi, investitsion jozibadorligi va ishlab chiqarish ixtisoslashuvini takomillashtirishga ko‘proq e’tibor qaratilganini anglatadi.

3-jadval

O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan erkin iqtisodiy zonalar[13]

№	EIZ faoliyat yo‘nalishlari	EIZ nomi
1	EIZ sanoat tarmoqlari	“Navoiy”, “Angren” va “Jizzax”, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon”, “Xazorasp”, “Namangan” va “Sirdaryo” EIZ, “Termiz” EIZ, “Chiroqchi” EIZ
2	EIZ farmotsevtika tarmoqlar	“Nukus-farm”, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm” va “Parkent-farm” EIZ, “Andijon-farm” EIZ
3	EIZ qishloq xo‘jalik tarmoqlari	“Baliq ishlab chiqaruvchi”, EIZ, “Buxoro-agro” EIZ
4	EIZ turistik tarmoq	“Chorvoq” ETZ
5	EIZ transport logistika soxasi	“Termiz” EIZ
6	EIZ sport invertarlarini ishlab chiqarish bo‘yicha	“Sport” EIZ

[13] Karimqulov J.I. O‘zbekistonning erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun,2019-yil. - 2 b.

Dastlabki statistik tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida ishlab chiqarish hajmi 2015–2025-yillar oralig‘ida 1000 mln. dollardan 17000 mln. dollargacha oshgan. Bu esa o‘rganilayotgan davrda ishlab chiqarish hajmi 16 000 mln. dollarga ko‘payganini va umumiy hisobda 17 barobar o‘sganligini anglatadi. Mazkur holat erkin iqtisodiy zonalarning mamlakat sanoat siyosatini amalga oshirishda, investitsiyalarni jalb etishda va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim institut sifatida shakllanganini ko‘rsatadi (4-rasm).



4-rasm. O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida ishlab chiqarish hajmi (mln.AQSh dol.)[14]

Muallif fikricha, erkin iqtisodiy zonalarda eksport hajmi bevosita ishlab chiqarish hajmi dinamikasiga bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri funksional bog‘liqlik mavjud. Ya’ni, ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan eksport salohiyati ham mutanosib ravishda kengayadi.

Dastlabki statistik tahlillarga ko‘ra, respublika erkin iqtisodiy zonalarining 2015 - 2025-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari tendensiyalarida sezilarli darajada o‘sish kuzatilgan. Tahlil natijalari ko‘rsatishicha, ushbu davr mobaynida ishlab chiqarish hajmi 1000 mln. dollardan 17000 mln. dollargacha o‘sib, 17 barobarga oshgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati taxminan 33 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu yuqori industrial rivojlanish dinamikasini ifoda etadi. Shu bilan birga, eksport hajmi 350 mln. dollardan 6500 mln. dollargacha ko‘tarilib, 18,6 barobarga oshgan va uning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 35 foiz atrofida shakllangan. Bu holat erkin iqtisodiy zonalarning eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy model asosida rivojlanayotganini va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik darajasi oshib borayotganini ko‘rsatadi (4-jadval).

[14] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari. www.stat.uz.

Keltirilgan jadval ma’lumotlari, erkin iqtisodiy zonalarning faoliyat samaradorligi baholash imkoniyatini beradi va ular asosida quyidagi modellarni qurish imkoniyati yuzaga keladi:

1. Ishlab chiqarish hajmi = f_1 (investitsiya, bandlik).

2. Eksport hajmi = f_2 (ishlab chiqarish hajmi).

3. Mehnat unumdorligi = f_3 (kapital bilan ta’minlanganlik darajasi).

4-jadval

Respublika hududlarida faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalarning asosiy ko‘rsatkichlari[15]

Yil	Ishlab chiqarish hajmi (mln. AQSh dol.)	Eksport (mln. AQSh dol.)	Investitsiya (mln. AQSh dol.)	Bandlar (ming)
2015	1000	350	2500	10
2016	1500	500	3500	15
2017	2800	1100	5200	25
2018	4500	1800	8900	35
2019	6200	2400	11500	42
2020	7000	2700	13000	48
2021	8500	3200	15000	55
2022	10200	3900	17800	62
2023	12500	4800	21000	70
2024	14800	5600	24500	78
2025	17000	6500	28000	85

Vaqtli qatorlar bo‘yicha kengaytirilgan Dikki-Fuller (ADF) testi yagona spetsifikatsiyada (ozod had va trend, lag=0) qo‘llanilganda ishlab chiqarish, eksport, investitsiya va bandlik qatorlarining barchasi boshlang‘ich darajada nostatsionar ekanligi aniqlandi (p-qiymatlar mos ravishda 0,961; 0,960; 0,889; 0,662). Shu sababli regressiya tahlilida ushbu ko‘rsatkichlar birinchi farqlar shaklida olindi; bu nostatsionar qatorlarni darajalarda qo‘llash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan “soxta regressiya” xavfini kamaytiradi.

Yuqorida keltirilgan dastlabki statistik ma’lumotlar asosida quyidagi empirik regressiya tenglamasini qurish imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

$$\Delta Y_{1t} = 140.93 + 0.577\Delta X_{1t} + 1.71\Delta X_{2t} \qquad (1)$$

Mazkur modelning sifat ko‘rsatkichlari quyida keltirilgan natijalar bilan tavsiflanadi (5-jadvalga qarang).

Olingan tahlil natijalariga ko‘ra, dastlabki modelda determinatsiya koeffitsiyenti R^2=0,813, ko‘plik korrelyatsiya koeffitsiyenti R=0,902, F-statistika 15,26 (p=0,003) ni tashkil etdi. Investitsiya o‘zgarishi (ΔX1) koeffitsiyenti 0,577 bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli (t=4,82; p=0,002), bandlik o‘zgarishi (ΔX2) koeffitsiyenti esa -1,71 bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatsiz (p=0,982) ekanligi aniqlandi.

Bandlik o‘zgarishining ta’siri statistik jihatdan tasdiqlanmagani sababli “umumiydan xususiyga” tamoyili asosida ushbu omil modeldan chiqarilib, model qayta baholandi. Yakuniy modelda investitsiya o‘zgarishi koeffitsiyenti 0,576 (standart

[15] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari. www.stat.uz.

xatolik 0,098; t=5,91; p<0,001), R^2=0,813, tuzatilgan R^2=0,790 va F=34,88 (p<0,001) ni tashkil etdi. Demak, EIZlarga jalb qilingan investitsiyalar hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,58 mln dollarga oshiradi. Qoldiqlar diagnostikasi avtokorrelyatsiya va geteroskedastiklik mavjud emasligini hamda qoldiqlar normal taqsimlanganligini ko‘rsatdi.

5-jadval

EIZning ishlab chiqarish funksiyasi bo‘yicha regression tahlil natijalari[16]

Ko‘rsatkichlar	**Regressiya koeffitsiyentlari**	**Standart xatolik**	**t - statistika**	**P - qiymat**
Omillar parametrlari				
β0 - ozod had	140.93	481.30	0.29	0.778
β1 - koef.	0.577	0.120	4.82	0.002
β2 - koef.	-1.71	72.00	-0.02	0.982
Tenglama parametrlari				
R - kvadrat	**Ko‘plikdagi R**	**F - statistika**	**F - statistikaning ahamiyatliligi**	**Standart xatolik**
0.813	0.902	15.26	0.003	297.46

Ma’lumki, ishlab chiqarish hajmining o‘sishi tovar va xizmatlar taklifini kengaytiradi, buning natijasida ortiqcha mahsulot tashqi bozorlarga yo‘naltiriladi. Shu sababli ishlab chiqarishning o‘sishi eksport salohiyatini oshiradi. Yuqoridagi mulohazadan kelib chiqqan holda tadqiqotda erkin iqtisodiy zonalardagi ishlab chiqarish hajmini ularning eksport hajmiga ta’siri ko‘rib chiqiladi va quyidagi empirik model bilan baholanadi:

$$\Delta Y_{2t} = -9.09 + 0.39 \cdot \Delta X \qquad (2)$$

Mazkur model bo‘yicha olingan regression tahlil natijalari quyida keltirilgan jadvalda o‘z aksini topgan (6-jadval).

6-jadval

EIZning eksport funksiyasi bo‘yicha regression tahlil natijalari

Ko‘rsatkichlar	**Regressiya koeffitsiyentlari**	**Standart xatolik**	***t* - statistika**	***P* - qiymat**
Omillar parametrlari				
α_0 - ozod had	-9.09	61.84	-0.14	0.888
α_1 - koef.	0.39	0.036	10.72	0.000
Tenglama parametrlari				
***R* - kvadrat**	**Ko‘plikdagi *R***	***F* - statistika**	***F* - statistikaning ahamiyatliligi**	**Standart xatolik**
0.934	0.966	115.05	0.000	66.25

Eksport funksiyasi bo‘yicha determinatsiya koeffitsiyenti R^2=0,934, ko‘plik korrelyatsiya koeffitsiyenti R=0,966 va F-statistika 115,05 (p<0,01) ni tashkil etdi.

[16] Eviews 10.0 amaliy paketida muallif hisob-kitoblari.

Qoldiqlar diagnostikasi bo‘yicha Darbin-Uotson statistikasi DW=2,43, Breush-Pagan testi p=0,650 va Jark-Bera testi p=0,757 bo‘lib, modelning asosiy diagnostik talablarga javob berishi tasdiqlandi.

Iqtisodiy talqinga ko‘ra, ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi eksport hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,39 mln dollarga oshiradi. Shuningdek, mehnat unumdorligi funksiyasi bo‘yicha kapital bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti 0,915 ($p<0,01$), $R^2=0,872$ ni tashkil etdi. Mehnat unumdorligi va kapital bilan ta’minlanganlik qatorlari I(1) bo‘lib, Engl-Grenjer testi ularning uzoq muddatli kointegratsion bog‘liqligini 5 foizlik chegarada tasdiqladi; natijalar kichik tanlanma sabab ehtiyotkorlik bilan talqin qilindi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi “Erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash uslubiyoti va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyatlari” deb nomlanib, unda erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholashda ekspert so‘rov usullaridan foydalanish, erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga “sof ta’siri” va “ta’sir darajasi”ni baholash uslubiyotini ishlab chiqish hamda erkin iqtisodiy zonalarning asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini prognozlash va prognoz natijalarini baholash kabi masalalar bayon etilgan.

Tadqiqotda erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirlarini baholashda ekspert baholash usuli qo‘llaniladi. Ekspert baholash usulining afzalligi shundaki, u raqamlarda to‘liq aks ettirish imkoniyatini bera olmaydigan omillarni - institutsional muhit, infratuzilma rivoji, investitsiya jozibadorligi, innovatsion faollik kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish imkoniyatini beradi[17].

Muayyan hududda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonaning mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirlarini ekspert baholash maqsadida muallif tomonidan ekspertlarga taqdim etish maqsadida quyidagi “Ekspert so‘rov varaqasi” taklif etiladi (7-jadval).

7-jadval

Ekspert so‘rov varaqasi[18]

Belgi	Savollar	Ta’sir darajalari				
		1	2	3	4	5
Q_1	Hududiy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_2	Investitsiyalarni faol jalb qiladi va investitsion muhitni yaxshilaydi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_3	Yangi ish o‘rinlarini yaratadi va hududiy aholi bandligini oshiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_4	Infratuzilmani takomillashtiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_5	Eksportni rag‘batlantiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_6	Sanoat ishlab chiqarishni kengaytiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_7	Kichik biznesni rivojlantiradi	☐	☐	☐	☐	☐
Q_8	Aholi va hududiy korxonalarning biznes ko‘nikmalarini oshiradi	☐	☐	☐	☐	☐

[17] Xomidov S.O. Qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ekspertlar fikridan foydalanish uslubiyoti. “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnali. №4 (124), 2019. B. 16-24.

[18] Muallif ishlanmasi.

“Ekspert so‘rov varaqasi”da keltirilgan savollarni baholashda Laykertning 1-5 balli (1 ball - juda past ta’sir, 2 ball - past ta’sir, 3 ball - o‘rtacha ta’sir, 4 ball - yuqori ta’sir, 5 ball - juda yuqori ta’sir) shkala qabul qilindi.

Tuzilgan so‘rovnomaning sifati va ishonchliligini baholash uchun Kronbax alfa (α) koeffitsiyentidan foydalanildi[19]:

$$\alpha = \frac{k}{k-1}\left(1 - \frac{\sum \sigma_i^2}{\sigma_T^2}\right) \quad (3)$$

Bu yerda bizdagi holat bo‘yicha $k = 7$ - ekspertlar soni, $\sum \sigma_i^2$ - ekspertlar baholari dispersiyalari yig‘indisi bo‘lib, uning qiymati 1.982 ni tashkil etadi. Shuningdek, σ_T^2 - umumiy ballar dispersiyasi va uning qiymati 7.982 qiymatni tashkil etadi.

So‘rovnoma bo‘yicha alfa qiymat (α) 0.877 ga teng bo‘lib, bu natija ilmiy mezonlarga ko‘ra yuqori ishonchlilikni anglatadi. Odatda $\alpha > 0.70$ - qabul qilinadigan, $\alpha > 0.80$ - yaxshi, $\alpha > 0.90$ - juda yuqori ishonchlilik sifatida baholanadi.

Tahlillarga ko‘ra, “Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi” (konkordatsiya koeffitsiyentining (W) qiymati) 0.575 qiymatni tashkil etdi. Olingan natijaning statistik jihatdan ahamiyatliligi Pirsonning quyidagi xi-kvadrat mezoni yordamida baholandi[20]:

$$\chi^2 = m(n-1)W \quad (4)$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur mezon 28.18 qiymatni tashkil etganligi va $\chi^2_{0.05;7} = 14.07$ qiymatga teng ekanligi aniqlanib, $28.18 > 14.07$ talab bajarilganligi uchun konkordatsiya koeffitsiyentining (W) olingan qiymati statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi.

Konkordatsiya koeffitsiyentining olingan qiymati ($W \approx 0{,}575$) Xarrington verbal-sonli shkalasi bo‘yicha o‘rta darajadagi kelishuvni anglatadi. Bu natija Kronbax alfa koeffitsiyenti ($\alpha = 0{,}877$) bilan zid emas, chunki α ekspertlar baholarining o‘zaro izchilligini, W esa omillarni ustuvorlik tartibida joylashtirishdagi muvofiqlikni ifodalaydi. Demak, ekspertlar EIZlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sirini izchil tan oladilar, biroq ta’sir kanallarining ustuvorligi bo‘yicha ularning fikri o‘rta darajada muvofiq.

Kronbax alfa koeffitsiyenti hisob-kitobida ekspertlar o‘zgaruvchi, savollar esa kuzatuv birligi sifatida olingan, shu sababli u savollarning yagona shkala sifatidagi ichki izchilligini emas, balki baholovchilararo muvofiqlikni ifodalaydi. Ekspert baholarining reprezentativligini ta’minlash uchun ekspertlarni tanlashning sakkizta mezoni (kasbiy yo‘nalish, kamida 5 yillik staj, malaka darajasi, masala bilan tanishlik, fikrning asoslanganligi $Ka \geq 0{,}8$, kompleks kompetentlik $Ki \geq 0{,}7$, mustaqillik va institutsional vakillik) va ularni tekshirish usullari taklif etildi.

EIZlarning “sof ta’siri”ni ajratish uchun kvazieksperimental yondashuv, xususan, “Difference-in-Differences (DiD)” — farqlar-farqi usuli taklif etildi. Bunda tajriba

[19] Joseph F. Hair **et al. (2019).** *Multivariate Data Analysis.* 2019, Cengage Learning EMEA. ISBN: 978-1-4737-5654-0. - 776 p.

[20] Jilyakova Ye.V., Larin S.N. Metodы i priyemы provedeniya nezavisimoy ekspertizы. // Vestnik VGU. Seriya: Ekonomika i upravleniye, 2009. №2. - 113 s.

guruhi EIZ tashkil etilgan hududlardan, nazorat guruhi esa EIZ tashkil etilmagan, biroq aholi soni, sanoat ulushi, investitsiya salohiyati, infratuzilma, ishsizlik va eksport salohiyati kabi mezonlar bo‘yicha o‘xshash hududlardan shakllantiriladi.

Hududlar EIZ tashkil etiladigan va etilmaydigan guruhlarga tasodifiy ravishda ajratilmaganligi sababli nazorat guruhini EIZgacha bo‘lgan davrdagi parallel tendensiyalar asosida shakllantirish zarur. Pre-period bazaviy tendensiyalarni, post-period esa EIZ tashkil etilgandan keyingi dinamikani ifodalaydi; shu tariqa tashqi omillar ta’siridan imkon qadar tozalangan kontrfaktual baho shakllantiriladi.

Uslubiyot mantiqi shartli misolda ko‘rsatildi: potensial natijalar ma’lum bo‘lgan holatda o‘rtacha ta’sir samaradorligi ATE=6 shartli birlik bo‘lsa, kuzatilgan guruhlar o‘rtasidagi oddiy farq SDO=−4 shartli birlikni tashkil etib, noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkin. Bu holat sof ta’sirni baholashda tasodifiy tajriba emas, balki kvazieksperimental nazorat va parallel trend shartlariga tayanish zarurligini ko‘rsatadi.

EIZlar hududlarda turli yillarda tashkil etilganligi sababli ta’sirni EIZ tashkil etilganidan keyingi har bir yil bo‘yicha baholovchi voqealar tadqiqoti (event study) spetsifikatsiyasi taklif etildi:

$$Y_{it} = \alpha_i + \lambda_t + \Sigma_{k\neq -1}\, \beta_k \cdot D_{it}^{\,k} + X'_{it}\gamma + \varepsilon_{it}$$

bunda D_{it}^{k} — i-hududda EIZ tashkil etilganidan k yil o‘tganligini bildiruvchi binar o‘zgaruvchi, α_i va λ_t — hudud va yil qat’iy effektlari. Parallel trend sharti EIZgacha bo‘lgan yillar koeffitsiyentlarining birgalikdagi ahamiyatsizligi (H_0: $\beta_{-k} = \ldots = \beta_{-2} = 0$) Fisher F-mezoni bilan tekshiriladi, nazorat hududlari esa EIZgacha bo‘lgan xususiyatlar bo‘yicha Mahalanobis masofasi $d(i, j) = \sqrt{[(x_i - x_j)'S^{-1}(x_i - x_j)]}$ eng kichik bo‘lgan hududlardan tanlanadi va tanlov sifati standartlashtirilgan o‘rtacha farq ($|SMD| \leq 0{,}25$) bilan tekshiriladi. Uslubiyotni real ma’lumotlarda qo‘llash uchun hududlar kesimida EIZgacha va undan keyingi davrlarni qamrab oluvchi panel ma’lumotlar talab etiladi.

Tadqiqotda erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir darajalarini baholashda noaniq to‘plamlar nazariyasi (fuzzy sets) qo‘llanildi. Ta’sir intensivligini integral baholash bosqichida 10 ballik shkala va 4 nafar ekspert baholari qo‘llanib, ularning natijalari [0;1] oralig‘iga me’yorlashtirildi.

Aynan mazkur noaniq to‘plamlar nazariyasi (*fuzzy sets*) lingvistik o‘zgaruvchilar, ya’ni sifat xarakteriga ega bo‘lgan o‘zgaruvchilar bilan ishlay oladi. Bunda ta’sirlarni “kuchsiz, kuchli, juda kuchli” yoki “quyi, o‘rta va yuqori” deb ataluvchi ta’sirlarga ajratish imkoniyatini beradi.

Noaniq to‘plamlar nazariyasida har bir ko‘rsatkich 0 dan 1 gacha bo‘lgan a’zolik darajasi (μ) orqali baholanadi, bunda 0 - ta’sir yo‘q, 1 - maksimal ta’sir, oraliq qiymatlar [0;1] - qisman ta’sirlarni ifodalaydi. Asosiy g‘oya shundan iboratki, har bir ko‘rsatkich 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda baholanadi. Bu qiymat a’zolik darajasi deb ataladi[21].

$$0 \leq \mu(x) \leq 1$$

Bunda $\mu(x)$ - ko‘rsatkichning hududiy rivojlanishga ta’sir darajasi bo‘lib, u quyidagicha tavsiflanadi:

[21] Borisov A.N., Krumberg O.A., Fedorov I.P. Prinyatiye resheniy na osnove nechetkix modeley: Primerы ispolzovaniya. - Riga: Zinatne, 1990. - 184 s.

agar $\mu(x) = 0$ bo‘lsa, ta’sir yo‘q yoki juda past;
agar $\mu(x) = 1$ bo‘lsa, ta’sir maksimal darajada;
agar $\mu(x) = 0.5$ bo‘lsa, ta’sir o‘rta darajada.

Har bir ko‘rsatkichni 0 va 1 oraliqqa o‘tkazish uchun, ularni me’yorlashtirish talab etiladi va quyidagi formuladan foydalaniladi[22]:

$$\mu(x) = \frac{x - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \quad (5)$$

A’zolik funksiyasining umumiy shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$\mu_A(x): X \rightarrow [0,1]$$

bunda: $\mu_A(x)$ - a’zolik funksiyasi, x unsurning A toifasiga tegishliligini ko‘rsatadi, X - unsurlar toifasi (ma’lum bo‘lgan barcha unsurlar to‘plami), [0,1] - a’zolik qiymati (0 dan 1 gacha bo‘lib, 0 - unsur toifaga tegishli emas, 1 - to‘liq tegishli).

Quyida keltirilgan ekspert baholar erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan latent ta’sir darajasini aniqlash imkoniyatini beradi (8-jadval).

8-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari va ularga ekspertlar tomonidan belgilangan ballar[23]

Erkin iqtisodiy zonaning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari	**Ekspert-mutaxassislar tomonidan belgilangan ballar (10-ballik shkalada)**			
	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	4-ekspert
Hududiy investitsion muhit	7	8	8	10
Hududiy infratuzilma	9	10	7	6
Hududiy iqtisodiy o‘sish	8	7	6	7
Hududiy bandlikni ta’minlash	8	7	8	8
Hududdagi aholi daromadlari	7	7	6	7
Hududning eksporti	9	8	8	9
Hududdagi biznes madaniyati	10	9	10	10

Izoh:
1. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar latent va latent bo‘lmagan o‘zgaruvchilardan iborat.
2. Jadvalda faqat erkin iqtisodiy zonaga tegishli bo‘lgan korxonalar faoliyati ko‘zda tutiladi.

Mazkur jadvalda keltirilgan qiymatlar shkala chegaralariga nisbatan me’yorlashtirildi (xmin=1, xmax=10), ya’ni μij=(xij−1)/9 formula asosida har bir ekspert bahosi 0 va 1 oralig‘iga o‘tkazildi. So‘ngra har bir yo‘nalish bo‘yicha me’yorlashtirilgan baholarning o‘rtachasi va umumiy integral indeks hisoblandi (9-jadvalga qarang).

[22] Starovoytov V.V. Golub Yu.I. Normalizatsiya dannыx v mashinnom obuchenii. Informatika. Tom. 18. №3. 2021. - 86 b.
[23] Muallif ishlanmasi.

9-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatilgan ballarni me’yorlashtirish[24]

Erkin iqtisodiy zonaning hududiy iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sir yo‘nalishlari	**Me’yorlashtirilgan qiymatlar, μij = (xij − 1)/9**			
	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	4-ekspert
Hududiy investitsion muhit	0.67	0.78	0.78	1
Hududiy infratuzilma	0.89	1	0.67	0.56
Hududiy iqtisodiy o‘sish	0.78	0.67	0.56	0.67
Hududiy bandlikni ta’minlash	0.78	0.67	0.78	0.78
Hududdagi aholi daromadlari	0.67	0.67	0.56	0.67
Hududning eksporti	0.89	0.78	0.78	0.89
Hududdagi biznes madaniyati	1	0.89	1	1

Yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rtacha a’zolik darajalari: investitsion muhit — 0,81; infratuzilma — 0,78; iqtisodiy o‘sish — 0,67; aholi bandligi — 0,75; aholi daromadlari — 0,64; eksport — 0,83; biznes madaniyati — 0,97. Integral indeks yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rtacha a’zolik darajalarining teng vaznli yig‘indisi sifatida aniqlandi (wi=1/7).

$$I = \Sigma\, wi \cdot \mu i = (0{,}81 + 0{,}78 + 0{,}67 + 0{,}75 + 0{,}64 + 0{,}83 + 0{,}97) / 7 = 0{,}78$$

Lingvistik talqin uchun “past” — (0; 0; 0,2; 0,4), “o‘rta” — (0,2; 0,4; 0,6; 0,8), “yuqori” — (0,6; 0,8; 1; 1) trapetsial a’zolik funksiyalari qabul qilindi. I=0,78 qiymatida “yuqori” toifaga a’zolik darajasi 0,89, “o‘rta” toifaga a’zolik darajasi 0,11 ni tashkil etdi.

$$\mu yuqori(0{,}78)=0{,}89;\quad \mu o‘rta(0{,}78)=0{,}11;\quad \mu past(0{,}78)=0$$

Olingan natijalar EIZlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga integral ta’sir darajasi “yuqori” toifaga mansub ekanligini ko‘rsatdi (I=0,78; a’zolik darajasi 0,89). Eng zaif yo‘nalish aholi daromadlariga ta’sir bo‘lib, uning me’yorlashtirilgan qiymati 0,64 va “o‘rta” toifaga mos keladi. Min-operatori integral baho sifatida emas, balki eng zaif bo‘g‘inni aniqlovchi pessimistik chegara sifatida talqin qilindi.

Teng vaznlarning natijaga ta’siri sezgirlik tahlili orqali tekshirildi. Entropiya usulidagi vaznlarda indeks 0,768 ni, bitta yo‘nalish navbatma-navbat chiqarib tashlanganda 0,745–0,801 ni, 10 000 ta tasodifiy vaznlar to‘plamining 95 foizida 0,710–0,856 ni tashkil etdi. Tasodifiy vaznlarning 99,0 foizida “yuqori” toifaga a’zolik “o‘rta” toifaga a’zolikdan katta bo‘ldi. Demak, integral baho vaznlash usuliga barqaror.

Tadqiqotda EIZlarning asosiy ko‘rsatkichlarini prognozlash uchun chiziqli, kvadratik va eksponensial trend modellari baholandi. Modellar MAE, MAPE, RMSE, R^2 hamda 2015–2022-yillarda qayta baholanib 2023–2025-yillar nazorat davridagi

[24] Muallif ishlanmasi.

MAPE ko‘rsatkichi bo‘yicha taqqoslandi. Nazorat davrida MAPE eng kichik bo‘lgan model asosiy model sifatida tanlandi, MAPE 20 foizdan yuqori bo‘lgan modellar rad etildi.

$$\hat{y} = 96{,}97 + 732{,}87 \cdot t + 72{,}26 \cdot t^2 \quad (6)$$

Ishlab chiqarish hajmi uchun kvadratik trend eng yuqori aniqlikni ko‘rsatdi (MAE=235 mln dollar, MAPE=6,0 foiz, R^2=0,997; nazorat davri MAPE=8,4 foiz). Chiziqli trend ehtiyotkor ssenariy sifatida saqlandi, eksponensial trend esa nazorat davrida MAPE=74,4 foiz bo‘lgani sababli rad etildi. Tanlangan kvadratik model: $\hat{y} = 96{,}97 + 732{,}87 \cdot t + 72{,}26 \cdot t^2$.

10-jadval

Erkin iqtisodiy zonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlari[25]

Yillar	t	Chiziqli trend bo‘yicha prognoz, mln AQSh dol.	Kvadratik trend bo‘yicha prognoz (tanlangan model), mln AQSh dol.
2026	12	17 400	19 300
2027	13	19 000	21 800
2028	14	20 600	24 500
2029	15	22 200	27 300
2030	16	23 800	30 300

Chiziqli trend bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi 2030-yilda 23,8 mlrd dollarga yetishi mumkin va bu ehtiyotkor (quyi) ssenariy sifatida baholanadi. Tanlangan kvadratik trend bo‘yicha esa 2026-yilda 19,3 mlrd dollar, 2030-yilda 30,3 mlrd dollar prognoz qilindi. Eksponensial model bo‘yicha 2030-yil uchun olingan 86,2 mlrd dollarlik natija nazorat davrida katta xatolik bergani sababli iqtisodiy jihatdan asoslanmagan deb topildi va prognoz sifatida qabul qilinmadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish uchun kvadratik trend asosiy, chiziqli trend esa ehtiyotkor ssenariy sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv prognozni faqat yuqori R^2 bo‘yicha emas, balki tanlanma ichidagi va nazorat davridagi xatolik mezonlari bilan tekshirish imkonini beradi.

Eksport uchun kvadratik trend (MAPE=7,7 foiz; nazorat davrida 10,6 foiz), investitsiya uchun kvadratik trend (MAPE=6,3 foiz; nazorat davrida 6,8 foiz), bandlik uchun esa chiziqli trend (MAPE=3,0 foiz; nazorat davrida 0,9 foiz) tanlandi. Bu EIZ ko‘rsatkichlari turli iqtisodiy tabiatga ega bo‘lgani sababli ularni yagona universal trend bilan prognozlash maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmining prognozi bilan bir qatorda, EIZlarda eksport va investitsiya hajmlarini hamda bandlik ko‘rsatkichlarining prognozlari ham amalga oshirildi, olingan natijalar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (11-jadvalga qarang).

[25] Muallif ishlanmasi.

11-jadval

Erkin iqtisodiy zonalar asosiy ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari[26]

Yillar	Eksport hajmi (mln AQSh dol.)	Investitsiya hajmi (mln AQSh dol.)	Bandlik (ming kishi)
2026	7 300	31 100	93
2027	8 300	34 800	100
2028	9 300	38 500	108
2029	10 300	42 500	116
2030	11 400	46 600	123

Tanlangan modellarning adekvatligi F-mezon (barcha modellarda $p < 0,001$), Jark-Bera testi (qoldiqlar normal taqsimlangan, $p > 0,69$) va Teyl U koeffitsiyenti (barcha modellarda 1 dan kichik, ya’ni nazorat davrida oddiy prognozdan aniqroq) bilan tasdiqlandi. Prognozlarning noaniqligi 95 foizli prognoz oraliqlari orqali baholandi (12-jadval).

12-jadval

Tanlangan prognoz modellarining aniqligi va 2030-yil prognozining 95 foizli oralig‘i[27]

Ko‘rsatkich	Tanlangan model	MAPE, %	Nazorat davri MAPE, %	Teyl U	2030-yil prognozi	95 foizli prognoz oralig‘i
Ishlab chiqarish, mln AQSh dol.	kvadratik	6,0	8,4	0,59	30 300	27 700–33 000
Eksport, mln AQSh dol.	kvadratik	7,7	10,6	0,75	11 400	10 200–12 600
Investitsiya, mln AQSh dol.	kvadratik	6,3	6,8	0,56	46 600	41 500–51 700
Bandlik, ming kishi	chiziqli	3,0	0,9	0,10	123	119–127

Prognoz oraliqlari faqat statistik noaniqlikni aks ettirgani sababli tashqi shok ssenariysi ham ishlab chiqildi: 2026–2030-yillarda EIZlarga yillik investitsiya oqimi 30 foizga kamaygan holatda (1) va (2)-tenglamalar bo‘yicha 2030-yilda ishlab chiqarish hajmi 28,4 mlrd dollardan 25,2 mlrd dollarga (11,3 foizga), eksport 10,9 mlrd dollardan 9,6 mlrd dollarga (11,5 foizga) pasayadi. Shunday qilib, 2030-yil uchun ishlab chiqarish bo‘yicha boshqaruv qarorlari 23,8 mlrd dollar (ehtiyotkor ssenariy), 25,2 mlrd dollar (tashqi shok) va 30,3 mlrd dollar (asosiy ssenariy) oralig‘ida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda respublikada erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat yuritib kelayotgan hududlardan biri bu - Buxoro viloyatidir. Hozirda viloyat hududida 1 ta MEIZ, 1 ta agropolis EIZ hamda kichik sanoat va yoshlar sanoat zonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Aytish joizki, viloyatda kichik sanoat zonalari boshqa erkin iqtisodiy zonalarga nisbatan samarasi yuqori bo‘lib, ular hududning asosiy drayveriga aylanib bormoqda.

[26] Muallif ishlanmasi.
[27] Muallif hisob-kitoblari.

Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida tumanlararo tafovutlar loyihalarni amalga oshirish darajasi, investitsiya hajmi va investitsiya qaytimi bo‘yicha dekompozitsiya qilindi. Kogon tumaniga ishga tushgan loyihalar sonining 6,9 foizi va qiymatining 4,9 foizi to‘g‘ri kelgani holda, 2025-yilda kichik sanoat zonalari ishlab chiqarishining 37,6 foizi va eksportining 85,9 foizi shu tumanda yaratilgan: bu yerda 1 so‘m investitsiyaga 4,75 so‘m mahsulot ishlab chiqarilgan (viloyat bo‘yicha o‘rtacha 0,62 so‘m). Buxoro tumaniga ishga tushgan loyihalar qiymatining 45,9 foizi to‘g‘ri kelsa-da, bu ko‘rsatkich atigi 0,06 so‘mni tashkil etadi. Romitan, Vobkent va Shofirkon tumanlarida loyihalarning amalga oshish darajasi (21,7; 25,0 va 0 foiz) viloyat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (57,1 foiz) ancha past. Demak, tafovutlar rezidentlar tarkibi va eksportga yo‘naltirilganlik, quvvatlarni o‘zlashtirish darajasi hamda loyihalarni ishga tushirishdagi to‘siqlar bilan izohlanadi va qo‘llab-quvvatlash choralarini shu uch yo‘nalishda tabaqalashtirish talab etiladi.

Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida 2027–2030-yillardagi jami mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2026-yilda rejalashtirilgan 714,9 mlrd so‘mlik darajaning 10 barobariga yetkazish masalasi “maqsadli prognoz” sifatida ko‘rib chiqildi. $q + q^2 + q^3 + q^4 = 10$ tenglamasining aniq ildizi q=1,4026 bo‘lib, bu maqsadli trayektoriya ishlab chiqarishni har yili o‘rtacha 40,3 foizga oshirishni talab etishini ko‘rsatadi.

$$\bar{K}_{parabolik} = 1 + \frac{-3}{2(m-1)} + \sqrt{\frac{9}{4(m-1)^2} + \frac{6}{m(m^2-1)}\left(\frac{\sum_{i=1}^{m} y_i}{y_k} - m\right)} \qquad (7)$$

Bunda: m - qo‘shiladigan darajalar soni, y_k - bazis (zaminiy) daraja.

Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, 2027–2030-yillardagi to‘rt yillik jami ishlab chiqarish hajmi 7149,0 mlrd so‘mni, 2030-yilning o‘zidagi ishlab chiqarish hajmi esa 2767,0 mlrd so‘mni tashkil etadi. Demak, 10,00 koeffitsiyent 2030-yilning alohida qiymatini emas, balki to‘rt yillik yig‘indining 2026-yil darajasiga nisbatini ifodalaydi; 2030-yil ko‘rsatkichi 2026-yil darajasidan 3,87 barobar yuqori bo‘ladi.

13-jadval

Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi maqsadli prognoz parametrlari[28]

Oshib boruvchi darajalar (k)	Prognoz davrlari	Parabolik o‘sish sur’ati (koeffitsiyentda)	Mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari (mlrd.so‘m)
1	2027	1,4026	1002,7
2	2028	1,9674	1406,5
3	2029	2,7595	1972,8
4	2030	3,8705	2767,0
		10,00	7149,0

Mazkur maqsadli prognoz bo‘yicha 2027-yilda 1002,7 mlrd so‘m, 2028-yilda 1406,5 mlrd so‘m, 2029-yilda 1972,8 mlrd so‘m va 2030-yilda 2767,0 mlrd so‘mlik ishlab chiqarish hajmiga erishish talab etiladi. Bunday yuqori o‘sish sur’ati yangi investitsiya loyihalari va ishlab chiqarish quvvatlari bilan ta’minlanishi lozim.

[28] Muallif ishlanmasi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mavjud ta’riflarni umumlashtirish asosida erkin iqtisodiy zona davlat tomonidan aniq hududiy chegaralarda ajratilgan, investitsiyalarni jalb qilish, eksportbop ishlab chiqarishni rivojlantirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish maqsadida alohida soliq, bojxona va ma’muriy rejim amal qiladigan hamda faoliyat natijalari hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari orqali baholanadigan iqtisodiy makon sifatida ta’riflandi. EIZlar faoliyatini baholash tizimida imtiyozlardan foydalanish ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda hududiy qo‘shilgan qiymat, bandlik va aholi daromadlari kabi hududiy natija ko‘rsatkichlarini majburiy indikatorlar sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

2. Xorijiy tajriba (Xitoy, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Germaniya, Polsha) tahlili EIZ samaradorligi imtiyozlar hajmidan ko‘ra institutsional muhit, infratuzilma va zonaning hududiy ixtisoslashuviga ko‘proq bog‘liqligini ko‘rsatdi. Yangi zonalar tashkil etishda soliq imtiyozlarini kengaytirishdan ko‘ra muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini va zonaning hudud resurslariga mos ixtisoslashuvini ta’minlashga ustuvorlik berish lozim.

3. O‘zbekistonda EIZlarni tashkil etish uch bosqichda kechgan: sekin o‘sish (2008–2016-yillar, 1 tadan 3 tagacha), keskin o‘sish (2017–2021-yillar, 23 tagacha) va va barqaror kengayish (2022–2025-yillar, 27 tagacha). Ularning normativ-huquqiy bazasi 13 ta asosiy hujjat asosida to‘rt bosqichda shakllanib, davlat siyosatining urg‘usi zonalar sonini ko‘paytirishdan ularning samaradorligini oshirishga ko‘chgan. 2015–2025-yillarda EIZlarda ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd dollardan 17,0 mlrd dollarga, eksport 0,35 mlrd dollardan 6,5 mlrd dollarga oshgan, eksportning ishlab chiqarishdagi ulushi 35 foizdan 38 foizga ko‘tarilgan. Zonalar sonini ko‘paytirishdan mavjud zonalarning to‘liq yuklanishini ta’minlashga o‘tish va yillik maqsadli ko‘rsatkichlarni ochiq monitoring qilish tavsiya etiladi.

4. Ekonometrik tahlil natijalariga ko‘ra, EIZlarda investitsiyalar hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,58 mln dollarga, ishlab chiqarish hajmi yillik o‘zgarishining 1 mln dollarga ortishi esa eksport hajmi yillik o‘zgarishini o‘rtacha 0,39 mln dollarga oshiradi; mehnat unumdorligi va kapital bilan ta’minlanganlik o‘rtasida uzoq muddatli bog‘liqlik mavjud (koeffitsiyent 0,915). Bandlik o‘zgarishining ishlab chiqarishga ta’siri statistik jihatdan tasdiqlanmadi.

5. Buxoro viloyatida “G‘ijduvon” EIZ (2017-yil, PF-4931) va “Buxoro-Agro” EIZ (2018-yil, PQ-3843) hamda jami 48 ta kichik sanoat va yoshlar sanoat zonalari faoliyat yuritmoqda. Kichik sanoat zonalari eksportining qariyb 86 foizi Kogon tumaniga to‘g‘ri keladi va bu konsentratsiya investitsiya hajmi (ishga tushgan loyihalar qiymatining 4,9 foizi) bilan emas, balki investitsiya qaytimining yuqoriligi (1 so‘m investitsiyaga 4,75 so‘m mahsulot, viloyat bo‘yicha o‘rtacha 0,62 so‘m) bilan izohlanadi. 2025-yilda Vobkent, Qorovulbozor, Olot va Shofirkon tumanlaridagi kichik sanoat zonalarida yangi ish o‘rinlari yaratilmagan, Romitan, Vobkent va

Shofirkon tumanlarida loyihalarning amalga oshish darajasi past (21,7; 25,0 va 0 foiz). Qo‘llab-quvvatlash choralarini tabaqalashtirish — investitsiya qaytimi yuqori tumanlarda eksport logistikasini rivojlantirish, qaytimi past tumanlarda quvvatlarni o‘zlashtirish monitoringini joriy etish, amalga oshish darajasi past tumanlarda esa loyihalarni muhandislik infratuzilmasiga ulash va foydalanilmayotgan maydonlarni faol investorlarga qayta taqsimlash lozim.

6. Ekspertlarni tanlashning kasbiy yo‘nalish, staj, kompetentlik, mustaqillik va institutsional vakillik mezonlari tizimi taklif etildi. Ekspert so‘rovi natijalariga ko‘ra (ekspertlar baholarining o‘zaro izchilligi α=0,877; W=0,575; χ^2=28,19>14,07), EIZlarning eng kuchli ta’sir kanallari sanoat ishlab chiqarishi, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar va eksport, nisbatan zaif kanallari esa bandlik, infratuzilma, kichik biznes va biznes ko‘nikmalari ekanligi aniqlandi. EIZ direksiyalari faoliyatini baholash ko‘rsatkichlariga mahalliy kichik biznes subyektlarining zona rezidentlari bilan kooperatsiya aloqalari va mahalliy aholining bandlikdagi ulushini kiritish lozim.

7. EIZlarning sof ta’sirini baholash uchun farqlar-farqi usuliga asoslangan uslubiyot taklif etildi. Hududlar tasodifiy ajratilmaganligi sababli nazorat guruhini EIZgacha bo‘lgan davrdagi parallel tendensiyalar asosida shakllantirish zarurligi, oddiy guruhlararo farq (SDO) esa sof ta’sirni noto‘g‘ri baholashi mumkinligi shartli misolda ko‘rsatildi. Bosqichma-bosqich joriy etishni hisobga oluvchi voqealar tadqiqoti spetsifikatsiyasi, parallel trendni tekshirish mezoni va nazorat hududlarini Mahalanobis masofasi asosida tanlash tartibi ishlab chiqildi. EIZ tashkil etilmagan o‘xshash hududlar bilan taqqoslashga asoslangan kontrfaktual baholashni joriy etish maqsadga muvofiq.

8. Noaniq to‘plamlar nazariyasi asosidagi integral baholash natijasida EIZlarning hududiy rivojlanishga ta’sir indeksi 0,78 ni tashkil etib, “yuqori” toifaga mansubligi, eng zaif yo‘nalish esa aholi daromadlariga ta’sir (0,64) ekanligi aniqlandi. Bu natija vaznlash usuliga barqaror: entropiya vaznlarida indeks 0,768 ni, tasodifiy vaznlarning 95 foizida 0,710–0,856 ni tashkil etib, “yuqori” toifa saqlanadi. EIZ rezidentlariga beriladigan imtiyozlarni ish haqi darajasi va mahalliy xodimlar ulushi bo‘yicha majburiyatlar bilan bog‘lash tavsiya etiladi.

9. Trend modellarini aniqlik mezonlari bo‘yicha tanlash natijasida ishlab chiqarish, eksport va investitsiyalar uchun kvadratik, bandlik uchun chiziqli trend tanlandi. Prognozga ko‘ra, 2030-yilda EIZlarda ishlab chiqarish hajmi 30,3 mlrd dollarga (ehtiyotkor ssenariyda 23,8 mlrd dollarga), eksport 11,4 mlrd dollarga, investitsiyalar 46,6 mlrd dollarga, bandlik 123 ming kishiga yetadi (ishlab chiqarish bo‘yicha 95 foizli prognoz oralig‘i 27,7–33,0 mlrd dollar, yillik investitsiya oqimi 30 foizga kamaygan tashqi shok ssenariysida 25,2 mlrd dollar); eksponensial trend bo‘yicha prognoz (86,2 mlrd dollar) asoslanmagan deb rad etildi. EIZ ko‘rsatkichlari bo‘yicha maqsadlarni belgilashda asosiy va ehtiyotkor ssenariylar oralig‘idan foydalanish va prognozlarni har yili yangi ma’lumotlar asosida qayta baholash maqsadga muvofiq.

10. Buxoro viloyati kichik sanoat zonalarida 2027–2030-yillardagi jami ishlab chiqarishni 2026-yil darajasining (714,9 mlrd so‘m) 10 barobariga yetkazish uchun ishlab chiqarish hajmi har yili o‘rtacha 40,3 foizga o‘sishi, 2030-yilda esa 2767,0 mlrd

so‘mga yetishi talab etiladi. Tavsiya: bunday yuqori o‘sish sur’ati mavjud quvvatlar hisobiga ta’minlanmasligini inobatga olib, maqsadli ko‘rsatkichni yangi investitsiya loyihalari portfeli bilan bog‘lagan holda tumanlar kesimida taqsimlash lozim.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.06.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ АЗИАТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИБРАГИМОВ АЗИЗ ТУРАЕВИЧ

РОЛЬ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ И МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ИХ ВЛИЯНИЯ

08.00.12 – Региональная экономика

Диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам
АВТОРЕФЕРАТ

Ургенч — 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2026.1.PhD/6595.

Диссертация выполнена в Международном Азиатском университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Хуррамов Ортикжон Каюмович** доктор философии по экономическим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	**Мухитдинов Худоёр Суюнович** доктор экономических наук, профессор
	Кузибаев Умарбек Улугбекович доктор философии по экономическим наукам
Ведущая организация:	**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в _____:_____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.06.04 по присуждению учёных степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, 14. Тел.: (998-62) 224-67-00; факс: (998-62) 224-57-00; e-mail: info@urdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (зарегистрирована под № _____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, 14. Тел.: (998-62) 224-67-00; факс: (998-62) 224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.

(протокол реестра № _____ от «____» _____ 2026 года).

И. С. Абдуллаев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Т. Ж. Рахимов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, доцент

В. Рузметов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. По данным мировой статистики, «сегодня в 147 экономиках существует около 5400 зон, что значительно выше примерно 4000 зон пять лет назад. Кроме того, планируется создание более 500 новых специальных экономических зон. Столь стремительное развитие специальных экономических зон является частью новой промышленной политики и ответом на усиление конкуренции за международно мобильные инвестиции»29. Приведённые статистические данные свидетельствуют о возрастающем стратегическом значении свободных экономических зон в мировой экономике: в частности, увеличение их числа в мире примерно на 1400 за последние пять лет и планы по созданию ещё более 500 новых зон означают признание данного механизма эффективным экономическим инструментом привлечения инвестиций, расширения экспорта и модернизации промышленности.

В последние годы практически вся новая промышленная политика, принимаемая как в развивающихся, так и в развитых странах мира, в той или иной степени ориентирована на привлечение инвестиций. Одновременно наблюдается тенденция снижения трансграничных производственных инвестиций. В связи с этим рынок привлечения международно мобильных инвестиций в промышленные мощности становится все более сложным и конкурентным. Спрос на инвестиции остаётся высоким, тогда как предложение сокращается и рыночная среда остаётся неблагоприятной. Именно в этих условиях быстро расширяется использование специальных экономических зон как важного инструмента политики привлечения инвестиций и промышленного развития.

Наряду с другими странами, в нашей республике вопросы создания свободных экономических зон и эффективного использования их возможностей для развития региональной экономики приобретают все более актуальное значение. В частности, на создаваемые в нашей стране свободные экономические зоны возложены такие задачи, как «создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций, прежде всего прямых, в целях организации современных высокотехнологичных производств, обеспечивающих выпуск продукции, отвечающей мировым стандартам и востребованной на мировых рынках», а также «создание благоприятных условий для привлечения иностранных и отечественных инвестиций в организацию современных производств по глубокой переработке минерально-сырьевых и сельскохозяйственных ресурсов, обеспечивающих выпуск конкурентоспособной продукции с высокой добавленной стоимостью, пользующейся высоким спросом на внешних рынках, а также комплексное и эффективное использование производственного и ресурсного потенциала области, создание на этой основе

[29] World Investment Report. https://unctad.org/system/ files/official-document/wir2019_en.pdf.

новых рабочих мест и повышение доходов населения».[30][31]

Диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, определённых Законом Республики Узбекистан от 17 февраля 2020 года № ЗРУ-604 «О специальных экономических зонах», указами Президента Республики Узбекистан от 3 марта 2025 года № УП-41 «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических и промышленных зон», от 13 июня 2022 года № УП-153 «О дополнительных мерах по повышению эффективности деятельности специальных экономических, малых промышленных, молодёжных, промышленных и предпринимательских зон», от 21 декабря 2018 года № УП-5600 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы координации и управления деятельностью свободных экономических зон», постановлением от 6 июня 2022 года № ПП-271 «О мерах по созданию специальных экономических и малых промышленных зон в регионах и обеспечению их инженерно-коммуникационной инфраструктурой», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие темы исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

